

YOSHLAR O'RTASIDA KIBERJINOYATCHILIK: OMILLAR TAHLILI VA OLDINI OLISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Rustamova Sevinch Zafarjon qizi

IIV Akademiyasi, 102- guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy globallashuv va raqamlashuv sharoitida yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikning o'ziga xos xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va texnologik omillar atroflicha tahlil qilingan. Muallif tomonidan voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari, jumladan, virtual makonning salbiy ta'siri va oilaviy muhitdagi uzilishlar o'rganilgan. Maqolada yoshlar jinoyatchiligining oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, profilaktika inspektorlari va ta'lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalarni ushbu jarayonga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar jinoyatchiligi, voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik profilaktikasi, globallashuv, raqamlashuv, ijtimoiy omillar, deviant xulq-atvor, kriminogen vaziyat, huquqiy madaniyat, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются особенности преступности среди молодежи в условиях современной глобализации и цифровизации, а также влияющие на нее социально-экономические, психологические и технологические факторы. Автор исследует причины правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи, включая негативное влияние виртуального пространства и проблемы в семейной среде. В статье разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по повышению эффективности системы профилактики молодежной преступности, усилению взаимодействия инспекторов профилактики и образовательных учреждений, а также внедрению цифровых технологий в данный процесс.

Ключевые слова: Молодежная преступность, несовершеннолетние, профилактика правонарушений, глобализация, цифровизация, социальные факторы, девиантное поведение, криминогенная ситуация, правовая культура, эффективность.

Abstract: This article analyzes in detail the characteristics of youth crime in the context of modern globalization and digitalization, as well as the socio-economic, psychological, and technological factors influencing it. The author examines the causes of delinquency among minors and young people, including the negative impact of virtual space and family environment issues. The article develops scientifically based proposals and recommendations for improving the effectiveness of the youth crime prevention system, strengthening cooperation between prevention officers and educational institutions, and integrating digital technologies into this process.

Keywords: *Youth crime, minors, delinquency prevention, globalization, digitalization, social factors, deviant behavior, criminogenic situation, legal culture, effectiveness.*

Globalashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda insoniyat hayoti virtual makon bilan chambarchas bog'lanib ulgurdi. Axborot texnologiyalarining taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda mislsiz imkoniyatlarni taqdim etish bilan bir qatorda, transmilliy xususiyatga ega bo'lgan yangi tahdid — kiberjinoyatchilikning yuzaga kelishi va keng qanot yoyishiga zamin yaratdi. Eng xavotirli jihati shundaki, virtual olamdagi jinoiy qilmishlarning asosiy ob'ekt va sub'ektlari sifatida zamonaviy texnologiyalarni tez o'zlashtiruvchi, ammo hayotiy tajribaga va yetarli huquqiy-raqamli immunitetga ega bo'lmagan yoshlar namoyon bo'lmoqda. Yoshlar o'rtasida kiberjinoyatchilikning o'sishi nafaqat alohida shaxslarning xavfsizligiga, balki davlatning axborot suvereniteti va milliy xavfsizligiga ham jiddiy ravishda tahdid solmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raqamli makonda yoshlar xavfsizligini ta'minlash va global tarmoqdagi tahdidlarga qarshi kurashish masalasiga alohida e'tibor qaratib, shunday ta'kidlagan edi: «Bugungi kunda yoshlarimizning ongi va qalbini egallash uchun virtual makonda shiddatli kurash ketmoqda. Biz farzandlarimizni nafaqat real hayotda, balki kibermakondagi xavf-xatarlardan, raqamli firibgarlik va destruktiv g'oyalar ta'siridan asrashimiz, ularda kuchli mafkuraviy va axborot immunitetini shakllantirishimiz shart». Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ushbu ustuvor vazifa kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda faqatgina jazo choralarini qo'llash emas, balki tizimli omillarni tahlil qilish va barvaqt profilaktika samaradorligini oshirish naqadar dolzarb ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Hozirgi kunda yoshlarning internet tarmog'idagi firibgarlik, bank kartalaridan mablag'larni noqonuniy o'zlashtirish, kiberbulling, ha cankerlik hujumlari va taqiqlangan mafkuraviy targ'ibotlar qurboniga yoki ijrochisiga aylanib qolayotganligi muammoni kriminologik jihatdan chuqur tadqiq etishni taqozo etmoqda. Sababi, raqamli olamda sodir etilayotgan qonunbuzarliklarning anonimlik darajasi yuqoriligi va hududiy chegara bilmasligi ularning oldini olishda an'anaviy huquqiy metodlardan tashqari, innovatsion va kompleks yondashuvlarni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada yoshlar muhitida kiberjinoyatchilikning keng tarqalishiga imkon berayotgan ijtimoiy, psixologik va texnik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli makonda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, yoshlarning kiber-savodxonligini yuksaltirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bu yo'nalishdagi profilaktik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar bayon etiladi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati davlat strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning bandligini ta'minlash va jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga qaratilgan keng qamrovli huquqiy va tashkiliy islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, zamonaviy determinantlar (internetdagi kiberjinoyatlar, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o'yinlar, sintetik narkotiklar aylanmasi va oilaviy ajrimlar) oqibatida yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlarning xarakteri va usullari o'zgarib bormoqda. Bu esa sohadagi kriminologik vaziyatni chuqur tahlil qilishni va an'naviy profilaktika usullarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki oila, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilikning tizimli hamkorligiga asoslanishi lozim. Jinoyatlarning oqibatlari bilan kurashishdan ko'ra, ularning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan shart-sharoitlarni aniqlash va barvaqt bartaraf etish ushbu sohadagi davlat siyosatining bosh maqsadidir.

Mamlakatimizda sohadagi amaliy holatni baholash va kriminogen vaziyatning real dinamikasini ko'rish uchun rasmiy statistik ma'lumotlarga nazar tashlash lozim. So'nggi yillarda O'zbekistonda umumiy jinoyatchilik fonida yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning tarkibiy qismi sezilarli o'zgarishlarga uchradi.

Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisining qariyb to'rttdan bir qismini yoshlar tashkil etadi, ya'ni jami yoshlar soni (14-30 yosh): 9 630 556 nafar (jami aholining 25,7%i) ni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich mahallalar va ta'lim muassasalarida manzilli profilaktika ishlarini olib borish ko'lami qanchalik katta ekanini ko'rsatadi.

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi majlisi (2026 yil mart hisoboti) ma'lumotlariga ko'ra, mahallalarda amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida jinoyatchilik kamayish tendensiyasini ko'rsatgan:

- Yoshlar o'rtasidagi jinoyatlar: Umumiy hisobda 15,1% ga kamaygan.
- Voyaga yetmaganlar (18 yoshga to'lmaganlar) jinoyatchiligi: Salmoqli darajada, ya'ni 11% ga kamaygan.

Garchi so'nggi yilda umumiy kamayish kuzatilgan bo'lsa-da, so'nggi 5 yillik umumiy trend xavotirli bo'lib qolmoqda. Masalan, BMT loyihalari tahlili shuni ko'rsatadiki, 13-17 yoshli voyaga yetmaganlar o'rtasida ro'yxatga olingan huquqbuzarliklar soni avvalgi yillarga (masalan, 2021 yilga) nisbatan bir necha barobar oshgan bo'lib, asosiy qismini o'g'rilik, tovlamachilik va tan jarohati yetkazish tashkil etadi.

Mazkur jinoyatchilikning "Hududiy tahlil"i esa quyidagi ijtimoiy-statistik farqlarni ko'rsatib beradi. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatlar soni bo'yicha hududlar quyidagicha taqsimlangan:

Eng yuqori ko'rsatkich, Farg'ona viloyati, Toshkent shahri, Namangan viloyati, Toshkent viloyatlarida bo'lsa, eng past ko'rsatkich Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlarida qayd etilgan.

Jinoyatlarning Farg'ona vodiysi va Toshkent shahrida yuqoriligi aholi zichligi, urbanizatsiya jarayoni va iqtisodiy faollikning yuqoriligi bilan bevosita bog'liq.

Shu o'rinda yana bir ma'lumot, ya'ni "Zamonaviy sharoitda" degan urg'usiga mos keluvchi eng dolzarb statistikaga e'tibor qaratilsa, Respublikda qayd etilgan umumiy jinoyatlarning qariyb 49,6%i axborot texnologiyalari (IT) orqali sodir etilmoqda. BMTning Xavfsizlik jamg'armasi va UNODC ma'lumotlariga ko'ra, kiberjinoyatlar (kartalardan pul o'g'irlash, onlayn tovlamachilik, qimor o'yinlari) bo'yicha jabrlanuvchilar va ijrochilarning katta qismi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Kibermakondagi jinoyatlar tufayli fuqarolarga yetkazilgan yillik moliyaviy zarar miqdori 25 million AQSh dollaridan oshib ketgan.

Respublikada voyaga yetmaganlar (18 yoshgacha bo'lganlar) tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2024 yilda 3 599 tani tashkil etgan bo'lsa, ko'rilgan tezkor profilaktik chora-tadbirlar natijasida 2025 yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 6,5 foizga kamaygan va 3 364 tani tashkil etgan. Shunga qaramay, uzoq muddatli (masalan, so'nggi 5 yillik) dinamika tahlil qilinganda, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ko'rsatkichi hali ham yuqoriligicha qolmoqda.

Ushbu raqamlar shuni ko'rsatadikibugungi kunda yoshlar o'rtasida an'naviy (ko'chadagi zo'ravonlik, mushtlashuv, talonchilik) jinoyatlar bilan birga, intellektual va iqtisodiy xarakterdagi (raqamli firibgarlik, bukmekerlik oqibatidagi o'g'riliklar, virtual narkosavdo) jinoyatlarga moyillik kuchayib bormoqda. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan profilaktika usullarini raqamli makonga ko'chirishni talab qiladi.

Yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikning zamonaviy transformatsiyasi (raqamlashuvi va yangi turdagi determinantlarning paydo bo'lishi) an'naviy profilaktika usullarini tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Sohada kutilgan samaradorlikka erishish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. «Raqamli profilaktika» (Digital Prevention) tizimini joriy etish.

Kibermakondagi jinoyatlar, bukmekerlik o'yinlari va virtual narkotrafikka qarshi faqat jismoniy nazorat bilan kurashib bo'lmaydi.

Sun'iy intellekt va monitoring: Ichki ishlar organlari va Kiberxavfsizlik markazlari hamkorligida ijtimoiy tarmoqlar, Telegram-kanallar va guruhlardagi kriminogen vaziyatni algoritmlar yordamida avtomatik monitoring qiluvchi tizimni kuchaytirish lozim. Bu yoshlarni yashirin narkosavdoga («zakladka») jalb etuvchi yoki tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni targ'ib qiluvchi kontentlarni barvaqt aniqlash va bloklash imkonini beradi.

Mediasavodxonlik va raqamli gigiena: Umumta'lim maktablari, litsey va OTMlarda yoshlar uchun «raqamli gigiena» va kiberfiribgarlikdan himoyalaniish bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish zarur. Yoshlar o'zganing plastik kartasidan pul yechish yoki

internet orqali pul evaziga shubhali posilkalarni yetkazib berish shunchaki «engil daromad» emas, balki uzoq muddatli qamoq jazosiga sabab bo'luvchi og'ir jinoyat ekanligini anglashlari kerak.

2. Bukmekerlik va onlayn qimor o'yinlariga qarshi huquqiy va texnik to'siqlar. Tez boyib ketish istagida jinoyat ko'chasiga kirib qolayotgan yoshlarni asrash uchun xorijiy bukmekerlik saytlari va onlayn kazino platformalariga to'lovlarni amalga oshirishni texnik jihatdan cheklash (bank plastik kartalari orqali bunday xorijiy tranzaksiyalarni bloklash) mexanizmini yanada takomillashtirish lozim.

Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida moliyaviy savodxonlik madaniyatini yuksaltirish, pul topishning qonuniy va intellektual yo'llarini targ'ib qilish zarur.

3. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi uchligining amaliy hamkorligi. «Ijtimoiy profilaktika» kuchaytirish: Ota-onasi uzoq muddatli migratsiyada bo'lgan yoki nizoli oilalarda yashayotgan yoshlarni aniqlab, ularga mahalla va yoshlar yetakchilari tomonidan alohida (individual) ijtimoiy-psixologik kuratorlar tayinlash amaliyotini kengaytirish lozim.

Bandlik va kasb-hunar: Ishsiz va hech qaerda o'qimaydigan yoshlarni (NEET qatlamini) qisqa muddatli zamonaviy kasblarga (IT, dasturlash, dizayn, raqamli marketing) bepul o'qitish va ularning bandligini ta'minlash orqali kriminogen muhitdan uzib olish zarur.

4. Qonunchilikni takomillashtirish. Jinoyat kodeksiga AKTdan foydalangan holda voyaga yetmaganlarni kriminal faoliyatga, xususan, sintetik narkotiklarni tarqatishga jalb qilganlik uchun javobgarlikni yanada kuchaytiruvchi normalarni kiritish.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini raqamlashtirish va ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan ma'lumot almashinuvi tezkorligini oshirish.

Zamonaviy sharoitda yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklar muammosini kriminologik tahlil qilish jarayoni shuni ko'rsatadiki, ushbu ijtimoiy hodisa globallashtirish va raqamlashtirish shiddati ostida tubdan transformatsiyaga uchramoqda. An'naviy jinoyat turlari o'rnini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan kiberfiribgarlik, virtual narkotrafik va onlayn qimor o'yinlari kabi yangi xavf-xatarlar egallamoqda. Bu esa sohadagi kriminogen determinantlarni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

O'tkazilgan tadqiqot va statistik ma'lumotlar tahlili asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Omillarning kompleks xususiyati: Yoshlar jinoyatchiligi faqatgina moddiy yetishmovchilik oqibati emas, balki raqamli makondagi nazoratsizlik, huquqiy ongning pastligi, oiladagi muhit va tez boyib ketish illyuziyasini beruvchi omillarning o'zaro ta'siri mahsulidir.

Profilaktikaning raqamlashtirishi: Ichki ishlar organlari va boshqa mas'ul tashkilotlarning an'naviy nazorat usullari bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning barvaqt oldini olish mexanizmlarini virtual makonga — "Raqamli profilaktika" shakliga o'tkazish davr talabidir.

Ijtimoiy sheriklik: Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas. Bu jarayonda oila, mahalla, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilikning tizimli va maqsadli hamkorligini yangi bosqichga ko'tarish zarur.

Yoshlar muhitida kiberjinoyatchilikning oldini olish, ularning raqamli makondagi xavfsizligini ta'minlash va mazkur sohadagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Ta'lim tizimiga «Raqamli gigiena va kiberxavfsizlik» majburiy kursini joriy etish: Yoshlarning raqamli savodxonligi va kiber-immunitetini shakllantirishni maktab davridan boshlash zarur. Shu maqsadda umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, akademik litsey va professional ta'lim muassasalari hamda oliy o'quv yurtlarida internet tarmog'idan xavfsiz foydalanish, kiberfiribgarlik tuzoqlari, shaxsiy ma'lumotlar muhofazasi va kiberbulling oqibatlarini tushuntiruvchi maxsus o'quv kurslari yoki tizimli mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish lozim.

«Kiber-patrul» va talabalar volontyorlik harakatini tashkil etish: Oliy ta'lim muassasalarining axborot texnologiyalari (IT) va yurisprudensiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan faol yoshlardan iborat volontyorlik guruhlarini tuzish tavsiya etiladi. Ushbu «Kiber-volontyorlar» tengdoshlari o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardagi destruktiv harakatlar, noqonuniy qimor (bukmekerlik) va firibgarlik saytlarini aniqlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga virtual ko'makchi vazifasini bajarishi mumkin.

Fishing va ijtimoiy injeneriya usullariga qarshi milliy ogohlantirish platformasini yaratish: Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazi va Raqamli texnologiyalar vazirligi hamkorligida yoshlar uchun sodda va qiziqarli bo'lgan mobil ilova yoki maxsus Telegram-bot tizimini keng yo'lga qo'yish kerak. Ushbu platforma orqali har bir yosh yigit-qiz duch kelgan shubhali havolalar (link), feyk yutuqli o'yinlar yoki moliyaviy piramida belgilarini real vaqt rejimida tekshirib olishi va yangi kiber-tahdidlar haqida tezkor xabarnomalar (push-notifications) olib turishi lozim.

Bank-moliya sohasida yoshlar kartalari uchun xavfsizlik cheklovlarini kiritish: Voyaga yetmaganlar va talabalar nomiga ochiladigan bank kartalari hamda elektron hamyonlar orqali shubhali onlayn qimor o'yinlari (stavkalar), kripto-aktivlarning noqonuniy aylanmasi va P2P (kartadan kartaga) shubhali pul o'tkazmalarini amalga oshirishni cheklovchi qonuniy va texnik filtrlarni joriy etish lozim. Bu yoshlarning bilib-bilmay kiberjinoyatchilarning «dropper»iga (pul naqdlashtirib beruvchi vositachisiga) aylanib qolishining oldini oladi.

Geymifikatsiya va ijtimoiy reklama imkoniyatlaridan foydalanish: Kiberjinoyatchilikning huquqiy oqibatlarini quruq ma'ruzalar orqali emas, balki yoshlar

ommabop qabul qiladigan qisqa metrajli videoroliklar, vaynerlar va blogerlar ishtirokidagi ijtimoiy loyihalar hamda interaktiv onlayn o'yinlar (kvestlar) shaklida tushuntirish targ'ibot samaradorligini bir necha barobarga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar o'rtasida kiberjinoyatchilikning yoyilishi shunchaki texnik xavfsizlik muammosi emas, balki jamiyatning ma'naviy, huquqiy va ijtimoiy barqarorligiga daxldor global fenomendir. O'tkazilgan omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, virtual olamda sodir etilayotgan firibgarliklar, virus hujumlari va destruktiv g'oyalar girdobiga yoshlarning tushib qolishiga ulardagi raqamli savodxonlikning yetishmasligi, oson daromad topish istagi va kibermakondagi anonimlik hissi asosiy sabab bo'lmoqda.

Kibermakonda hududiy chegaralarning mavjud emasligi va jinoyatlarning yuqori latentlik (yashirinlik) darajasi ularga qarshi an'anaviy usullar bilan kurashib bo'lmasligini ko'rsatdi. Endilikda asosiy urg'u jinoyat sodir etilgandan keyin uni fosh etishga emas, balki raqamli muhitda viktimologik profilaktikani, ya'ni yoshlarda kuchli axborot immunitetini shakllantirishga qaratilishi shart.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, virtual makonda farzandlarimiz ongi va qalbini asrash — bugungi kunning eng kechiktirib bo'lmas vazifasidir. Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish davlat organlari, ta'lim muassasalari, ota-onalar va fuqarolik jamiyati institutlarining jipslashgan holda, yagona maqsad yo'lida kompleks harakat qilishini taqozo etadi. Faqatgina huquqiy va raqamli madaniyati yuksak bo'lgan avlodni tarbiyalash orqali O'zbekistonning xavfsiz va barqaror kibermakonini yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2026.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Kriminologiya darsligi / Prof. M.H. Rustambayev tahriri ostida. – Toshkent: TDYUU, 2021.
3. Таштемиров, А. А. "Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги." Innovative achievements in science 2025 (2024): 82-90.
4. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.
5. Таштемиров, А. "Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш давлари." Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования 2 (2023): 133-139.
6. Таштемиров, А. А. "Техник криминалистик экспертиза—ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фаш этишнинг асосий

омили сифатида." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.21 (2023): 12-19.

7. Таштемиров, А. А. "Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари." World of Science 6.6 (2023): 169-175.

8. Таштемиров, А., and Ж. Курчибоев. "Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 3.12 (2023): 130-135.

9. Таштемиров А. А. Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фош этишда тезкор ходимларнинг терговчи ва суриштирувчилар билан ҳамкорлигининг айрим жиҳатлари //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 156-164.

10. Таштемиров, А. А. "Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы." International scientific research conference. Vol. 3. No. 28. 2024.

11. Tashtemirov, A., and A. Po'latov. "Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari." Инновационные исследования в науке 3.1 (2024): 75-78.

12. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.

13. Таштемиров, А. А., and С. А. Калайов. "Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати." barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali 2.8 (2022): 245-250.

14. Tashtemirov A. Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.

15. Tashtemirov, A. "Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash." (2024): 59-61.

16. Таштемиров, А., and А. Хўжамбердиев. "Оила-турмуш муносабатлари доирасидаги ҳуқуқбузарликларнинг турлари ва таснифи." Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.6 (2024): 4-12.

17. Aliqulovich T. A. Atxam o'g'li MX Profilaktika inspektorining ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonidagi ishtirokining oziga xos xususiyatlari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 24. – С. 230-235.

18. Tashtemirov A. Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo'yicha sudlar bilan hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – С. 38-42.
19. Таштемиров А. А. Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 42-48.
20. Tashtemirov A. Raxmonqulov S. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – С. 62-67.
21. Tashtemirov A. Sadullaev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda iiolari profilaktika inspektorlarining bojxona xizmati bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – С. 50-53.